



**“QISHLOQ XO’JALIGI ISHLAB CHIQARISHINI RESURS TEJOVCHI
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH – YANGI
IQTISODIY MUNOSABATLAR MEZONI”**

doi https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a44

Burxanov Alisher Hadjimurodovich –
Guliston davlat universiteti Iqtisodiyot
kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo’jaligida transformatsiya sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratuvchi iqtisodiy munosabatlardagi institutsional o’zgarishlar yoritilgan. Qishloq xo’jaligida jadal, sifat jihatidan yangi tarkibiy va bozor islohotlarini joriy etish jarayoni o’rganildi. Bozor beqarorligi va iqtisodiyotdagagi transformatsion jarayonlar sharoitida davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashni samarali rivojlantirish ularning tashkiliy-iqtisodiy mechanizmini takomillashtirishni hisobga oлgan holda asoslanadi. Qishloq xo’jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlar uchun subsidiyalar, resurs tejovchi texnologiyalardan foydalanish, xususan, suvni tejovchi texnologiyalardan foydalanish samaradorligi masalalari tahlil qilindi.

Kalit so’zlar: barqaror transformatsiya, qishloq xo’jaligi, modernizatsiya, subsidiyalar, institutsional o’zgarishlar, klaster, kooperatsiya, tomchilatib sug’orish.

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА
НА ОСНОВЕ РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩИХ ТЕХНОЛОГИЙ – КРИТЕРИЙ НОВЫХ
ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ**

Бурханов Алишер Хаджимурадович –
кандидат экономических наук, доцент, кафедрой “Экономика”,
Гулистанский государственный университет

Аннотации. В статье описаны институциональные изменения экономических отношений, создающие необходимые условия для повышения эффективности производства в условиях преобразований в сельском хозяйстве. Изучен процесс проведения стремительных, качественно новых структурных и рыночных реформ в сельском хозяйстве. В условиях рыночной нестабильности и трансформационных процессов в экономике эффективное развитие государственной поддержки базируется на совершенствовании их организационно-экономических механизмов. Проанализированы субсидии на сельскохозяйственную продукцию, использование ресурсосберегающих технологий, особенно водосберегающих технологий.

Ключевые слова: устойчивая трансформация, сельское хозяйство, модернизация, субсидия, институциональные изменения, кластер, кооперація, капельное орошение.

**"INCREASING THE EFFICIENCY OF AGRICULTURAL PRODUCTION BASED ON RESOURCE-SAVING
TECHNOLOGIES IS A CRITERION OF NEW ECONOMIC RELATIONS"**

Burkhanov Alisher Hadjimurodovich –
Associate Professor of the Department of Economics,
Gulistan State University, Candidate of

Abstract. The article describes the institutional changes in economic relations that create the necessary conditions for increasing production efficiency in the context of transformation in agriculture. The process of introducing rapid, qualitatively new structural and market reforms in agriculture was studied. In the conditions of market instability and transformational processes in the economy, the effective development of state support is based on the improvement of their organizational and economic mechanisms. Subsidies for agricultural products, use of resource-saving technologies, especially water-saving technologies, were analyzed.

Key words: sustainable transformation, agriculture, modernization, subsidy, institutional changes, cluster, cooperation, drip irrigation.

Kirish. Qishloq xo’jaligining barqaror transformatsiya jarayoni butun Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ahamiyatlidir. Bunga qishloq xo’jaligi barqaror rivojlanishi bo’yicha milliy rejalarini moslashtirish, qishloq xo’jaligini subsidiyalashning amaldagi tuzilmalarini yanada samarali ishlab chiqarishni subsidiyalash uchun qayta baholash, qishloq xo’jaligini modernizatsiya qilish uchun xususiy sarmoyalarni jalb qilish, suv tanqisligiga qarshi kurashtish uchun qishloq xo’jaligida suvdan foydala-

nish samaradorligini oshirish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash orqali erishish mumkin. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari 17 ta punkt-dan iborat bo’lib, uning 2-maqsadi oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo’jaligining barqaror rivojlanishiga ko’maklashishga bag’ishlangan[1]. Qishloq xo’jaligi sohasini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan bu sa’y-harakatlar, o’z navbatida, 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qila-

di. Iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga muvofiq, qishloq xo'jaligi YaIMdagi ulushi dunyoning, jumladan, MDHning barcha mamlakatlarida bir necha yillardan beri pasayib bormoqda. Ish o'rinnari, asosan, xizmat ko'rsatish va sanoat ishlab chiqarish sohalariga o'tdi. Ushbu o'tish davrida qishloq xo'jaligida bandlik sektor ishchi kuchi va kapital marginalashgan ko'proq daromadli va tez rivojlanayotgan resurs yoki xizmat sohalariga qarab harakatlandi. Bu hodisalarning kuchayishi qishloqda kambag'alik, oziq-ovqat xavfsizligi va ishsizlik xavfi kabi muammolarni keltirib chiqaradi [2].

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyoti o'si-shining eng muhim drayverlaridan biridir. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljalangan strategiyasi qabul qilinishi ushbu sohadagi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun dasturulamal bo'lmoqda [3].

Qishloq xo'jaligining YaIMdagi ulushi va qishloq xo'jaligining umumiyligi bandligi yillar davomida kamaygan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat o'sishda davom etmoqda. Qishloq xo'jaligining O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2018-yilda 32 foizni, 2019-yilda 28 foizni, 2021-yilda 26 foizni tashkil etdi. Ayni paytda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining jahon bozorida juda keskin iqtisodiy raqobat hukm surmoqda. Shu bilan birga, dunyoda qishloq xo'jaligi tarmog'i oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy bo'g'ini sifatida qaraladi, shuning uchun ham dunyoning aksariyat mamlakatlarida uning rivojlanishi hukumatlar tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Ushbu qo'llab-quvvatlash darajasi, erkin raqobat talablari buzilganligi sababli, shu jumladan, Jahon savdo tashkiloti (JST) doirasida keskin xalqaro nizolarni keltirib chiqaradi.

Jahon banki tahlillari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda biznes rivojlanishidagi to'siqlarni bartaraf etish, inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiyotni yashillashtirish uchun 13 ta ustuvor vazifa va 4 ta yo'nالishda tavsiyalar taqdim etildi [4]. Bular: 1) xususiy sektorda ishlab chiqarish hajmini oshirishni rag'batlantirish; 2) bozor rolini kuchaytirishda davlatning rolini kuchaytirish; 3) odamlarga sarmoya kiritish va 4) ekologik toza va barqaror kelajakni qurish.

Shu bilan birga, mamlakatdagi o'zgarishlarining muvaffaqiyati aholining farovonligi, bilim va imkoniyatlariga bog'liq. Bizning fikrimizcha, yangi

iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish bozor iqtisodiyotiga o'tishdir.

Jahon banki tahlilini natijalariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotining quyidagi jihatlari aniqlandi:

- iqtisodiy faoliyatning muhim qismi hamon markazlashgan davlat muassasalari tomonidan nazorat qilinadi. Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish iqtisodiy rivojlanishning jadal sur'atlaridan orqada qolmoqda;

- qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagagi ulushi 2021-yilda yalpi ichki mahsulotning 26 foizini tashkil etib, Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlariga taqqoslaganda, eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir;

- iqtisodiyotlari eng rivojlangan mamlakatlarda farovonlik jarayonlarining dvigateli bo'lgan xizmatlar sohasining ulushi dunyodagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, mintaqadagi barcha mamlakatlar darajasidan pastdir;

- ichki mehnat migrantsiyasi sur'atlari dunyodagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, urbanizatsiyaning sekinlashishiga (va zichligi past) olib keladi, bu esa O'zbekiston shaharlarini boshqa mamlakatlardagi shaharlarga qaraganda aholining aglomeratsiya darajasi pastligiga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish iqtisodiy munosabatlarini samarali yuritish va shuningdek, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammolari Y.S.Balandin, V.F.Bashmachnikov, Z.Kayyali, A.A.Konigin, Y.D.Kornilov, V.A.Martinov, V.Pchelinsev, A.A.Chaynov, N.Ya.Kovalenko, V.V. Miloserdov kabi xorij iqtisodchilarini tomonidan keng tadqiq etilgan. Shuningdek, mamlakatimizda agrar xo'jalikning yangi tipi sifatidagi fermer xo'jaliklarining tarkib topish va amal qilish xususiyatlari A.A.Abdug'aniev, R.A.Xusanov, H.P.Abulqosimov, A.A.Radjapov, R.F.Sultonov, T.X.Farmanov, A.Xurramov, N.S.Xushmatov, Sh.Sh.Shodmonov, Sh.E.Qarshiyev, U.V.G'afurov, R.X.Ergashev va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Biroq yuqorida sanab o'tilgan iqtisodchi-olimlar ilmiy tadqiqotlarining aksariyati aniq qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan amalga oshirilgan bo'lib, ularda hozirgi iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlari asosida nazariy tavsifdagi qoidalarga yetarlicha e'tibor berilmagan hamda o'z-o'zidan iqtisodiyotga kiritilayotgan yangi iqtisodiy munosabatlar ilmiy tadqiqotlarni davom ettirishni taqozo etadi.

Rossiyalik iqtisodchi-olim N.Ya.Kovalenkoning fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligi murakkab iqtisodiy kategoriya bo'lib, u ijtimoiy ishlab chiqarishning eng muhim jihatlari dan biri – natijadorlikni aks ettiradi [5].

A.A.Chaynovning tashkiliy-ishlab chiqarish maktabi tomonidan taklif etilgan iqtisodiyotni tashkil etish, kooperatsiya, mintaqaviy va iqtisodiy siyosatga tizimli yondashuv [6] hozirgi kun iqtisodiy munosabatlarida ham dolzarb va foydalanish imkoniyatlariga ega.

V.V.Miloserdovning ta'kidlashicha, iqtisodiy munosabatlarni tashkiliy va iqtisodiy munosabatlardagi siljishlarni hisobga olmasdan turib, qisqa vaqt ichida o'z-o'zidan o'zgartirib bo'lmaydi. Jamiat bilan bir vaqtda muloqot olib borish bilan birga davlatning vektor va uzoq muddatli ishi bilan yangi iqtisodiy munosabatlarni qurish mumkin [7].

Barcha davrlarda ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish asosiy mezon sifatida qaralgan va bu boradagi tadqiqotlar umumiqtisodiy muammo sifatida mamlakatimizning qator iqtisodchi olimlari tomonidan tadqiq etilib kelingan. Xususan, A.Abdug'aniyevning fikricha, «Iqtisod fanlarida "samaradorlik" va "iqtisodiy samaradorlik" tushunchalari mavjud. Ular mamlakat, tarmoq, korxona, yo'naliishlar hamda ayrim mahsulotlar bo'yicha aniqlanishi mumkin [8].

R.X.Ergashev qishloq xo'jaligining iqtisodiy samardorligi sezilarli darajada intensiv ishlab chiqarish darajasiga bog'liq, ishlab chiqarishni jadal-lashtirishning muhim yo'naliishi – resurslarni tejochi texnologiyasini qo'llash zarurligini izohlaydi [9].

R.Husanov, Yu.Dadaboyev esa "Samara qishloq xo'jaligida o'tkazilgan u yoki bu tadbirlarning oqibati, natijasidir. Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish vositalarining va jonli mehnatning qo'llanilishidan olingan yakuniy foydali samarani, jami sarmoyalardan erishilgan natijani ko'rsatadi" deb ta'kidlashadi [10].

Jahon bankining Jahon taraqqiyoti hisobotida o'sib borayotgan aholining oziq-ovqat, energiya va suvga global talabi 2012 yilga nisbatan 2030-yilda mos ravishda 50 %, 50 % va 30 %ga o'ishi prognoz qilinmoqda [11]. Xuddi shu bazaviy davrda oziq-ovqatga bo'lgan talab 2050-yilga kelib 70 %dan 100 %gacha oshishi prognoz qilinadi [12]. Bunday holat qishloq xo'jaligida intensiv rivojlanishga o'tish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda innovatsion tejamkor texnologiyalarni amaliyatga keng joriy etishni shart qilib qo'yadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samaradorlikni oshirishning nazariy va uslubiy asosini mamlakatimiz va xorijiy olimlar va mutaxassislarning tadqiqot ishlari, o'r ganilayotgan jarayonlarni tahlil qilishga kompleks tizimli yondashuv, iqtisodiyotning eng muhim masalalari bo'yicha O'zbekiston qishloq xo'jaligiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar va davlat organlarining dasturiy va prognozli ishlanmalari xizmat qilgan. Tadqiqot jarayonida monografik, mavhum-mantiqiy, analitik, kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi maxsus ilmiy usullar qo'llanilgan.

Tahsil va natijalar. Avvalo, keyingi yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligida institutsional o'zgarishlar faol amalga oshirilmoqda. Qishloq xo'jaligini rivojlanishga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Suv resurslari yo'qotilishini kamaytirish, qishloq xo'jaligi yerlarining eroziya va

degradatsiyasining oldini olish bo'yicha faol choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan qishloq xo'jaligi yerlarini ko'paytirish imkoniyatlarning amalda yo'qligi sharoitida qishloq xo'jaligini yanada rivojlanishning ekstensiv modelidan intensiv modeliga o'tilmoqda, bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishni nazarda tutadi. Avvalo, moliyaviy resurslar va butun ishlab chiqarish zanjiri bo'ylab xajratlarni kamaytirish shart-sharoitlarni yaratish orqali amalga oshiriladi.

Ayni paytda O'zbekistonda tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish texnologiyalari uskunalarini joriy etish, burg'ulash suvi uchun quduqlar qurish va nasos stansiyalarini o'rnatish uchun kreditlar, shu jumladan, xorijiy valyutada mablag' ajratish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralar qo'l lanilmoqda.

Natijada mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida jami 512 ming hektar yoki 2020-yilga nisbatan 5 barobar ko'p maydonda suvni tejovchi texnologiyalar joriy etildi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari zamon talablariga moslab borilayotganligi sababli suvni tejaydigan texnologiyalar 2021-yilning o'zida 433 ming hektar maydonda joriy etildi va ularning umumiyo ko'rsatkichi sug'oriladigan maydonlarning 17 foizini tashkil qildi [13].

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, respublika bo'yicha g'o'zani tomchilatib sug'orishda suv sarfi 30-40, mehnat sarfi 50-60, mineral o'g'itlar sarfi 50 %gacha, yonilg'i moylash materiallari sarfi esa 2,7 martaga qisqaradi. Suvdan foydalanish koeffitsiyenti 20 %ga oshadi [14].

Xususan, paxta va g'alla yetishtiruvchilar uchun davlat tomonidan ishlab chiqarish resurslari (yoqilg'i-moylash materiallari, urug'lik, o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari va hokazo) subsidiyalar ajratiladi. Tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etayotgan paxta xomashyosi ishlab chiqaruvchilari uchun gektariga 8 million so'm miqdorida subsidiyalar ajratilmoqda.

Meva mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish va purkagich uskunalarini xarid qilish uchun gektariga 6 million so'm subsidiya ajratilmoqda. Shuningdek, 35 geektar maydonda sug'orish uchun burg'ulash va quduqlar qazishga, jumladan, daryolar, kanallar va boshqa suv havzalaridan foydalanish uchun nasos stansiyalari qurishga 120 million so'm mablag' ajratilmoqda.

Vinochilik va vinochilik bilan shug'ullanuvchilar uchun imtiyozli kreditlar 7 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi, ular foiz stavkasi bilan 3 yilgacha bo'lgan imtiyozli davrni o'z ichiga oladi va banking 3 foizgacha bo'lgan marjasini hisobga olgan holda qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan oshmaydi.

Agrobiznes va qiymat zanjiri uchun qulay muhit yaratishda klasterlash va kooperatsiyani yagona hamkorlik tizimiga kiritish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilm-fan, innovatsiya va ilg'or texnologiyalarni joriy etish natijasida klasterlarda 3,4 million tonna paxta, 7,8 million tonna g'alla yetishtirildi. Paxtaning o'rtacha hosildorligi 29,8 s. dan 32,7 s. ga (110 %), g'alla hosildorligi 57,6 s. dan 64,1 s. ga (111 %) oshdi [15].

Amalda seleksiya bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli urug'lik va ko'chatlarning salmoqli qismi xorijdan olib kelinmoqda. Eskirgan tizimdan voz kechish orqali qishloq xo'jaligida butunlay yangi uzuksiz zanjir, klasterlar va kooperatsiya tizimini yaratishga e'tibor qaratildi. Shu bois klaster va kooperativlar rahbarlari va mutaxassislari asosiy e'tiborni xorijlik hamkasblar bilan tajriba almashish, xalqaro bozorni o'r ganish, talab yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlарini yetishtirishga qaratishi zarur.

Bir so'z bilan aytganda, klasterlar tadbirkorlar, fermer va dehqonlar, tomorqa yer egalari ko'magida qishloq xo'jaligi sohasini yanada rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish, hosildorlikni oshirishda mulkdorlarning eng yaqin yordamchisiga aylanadi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, ayniqsa, eksportbop ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha muhim tarmoq chora-tadbirlari amalga oshirildi. Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilish hajmi sezilarli darajada oshdi. Biroq jahon bozorida meva-sabzavot mahsulotlari savdosidagi respublika ulushi bir foizga ham yetmayotgani bu soha uzoq yillardan beri e'tibordan chetda qolganidan dalolat beradi.

Bizningcha, birinchi navbatda, mamlakatimizda mavjud har bir gektar yerdan samarali foydalanish uchun yangi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish va undan olinadigan daromadni oshirish choralarini ko'rish zarur. Ikkinchidan, iqtisodiy islohotlar va hukumat tomonidan Juhon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha ko'rilib chiqish jarayonini tezlashtirish muhim omil bo'lib, bu O'zbekistondan dunyoning aksariyat mamlakatlariga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, ayniqsa, meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish imkonini beradi. Uchinchidan, eksport salohiyatini oshirish maqsadida agrologistika tizimini shakllantirish va undan samarali foydalanish, mahsulotlarni saqlash va tayyor mahsulotga aylantirish infrazuzilmasini yaratish kun tartibidagi dolzarb masala.

Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ish, tashish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va eksport qilish jarayonlarini qamrab oluvchi zamnaviy agrologistika markazlarining o'rni katta. Bugungi kunda mamlakatimizda 31 ta agrologistika markazi, 1500 ta sovutgichli ombor mavjud. Ular meva va sabzavotlarning umumiy miqdorining atigi

4,5 foizini saqlashi mumkin. Bu ko'rsatkich haqiqatan ham ishlab chiqarishning barcha kerakli hajmini qoplamaydi, bu esa ushbu sohada sezilarli yo'qotishlarga olib keladi.

O'zbekistonda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq pul-kredit siyosati liberallashtirildi, eksport monopoliyasi cheklandi, eksport qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun fermer va dehqonlarga 100 foiz oldindan to'lov joriy etildi, meva-sabzavot mahsulotlari narxlarini, davlat savdo kompaniyalari orqali majburiy eksport qilish, eng kam eksport narxlarini belgilash bekor qilindi. Ammo qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda salmoqli natijalarga erishdik, deb bo'lmaydi. Ko'p turdag'i mahsulotlarni tashqi bozorga chiqarish imkoniyatiga ega bo'lganimiz sababli talab darajasiga mos keladigan katta hajmdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalana olmayapmiz.

Ma'lumki, O'zbekistonda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga xorijda ham talab katta. Agrologlar xizmati, sabzavot va mevalarni xalqaro standartlar asosida qadoqlash, xorijlik xaridorlarga jo'natish talab darajasida emas. Shu sababli ushbu sanoat mahsulotlari standartlarga muvofiqligi ustuvor bo'lмаган mamlakatlarga arzon narxlarida sotiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifati xorijga tashish bilan bog'liq muammolar tufayli yomonlashadi va yaroqsiz holga keladi. Yuqori sifat va xavfsizlik talablariga javob beradigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirib, yetkazib bera olsak, dunyoning istalgan davlatiga eksport qilish imkoniyatiga ega bo'lamic. Shuningdek, yong'oq, muzlatilgan va quritilgan meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishning geografik ko'lамини kengaytirish imkoniyatlari cheksiz, deb hisoblaymiz.

Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining geografik qamrovi ham sezilarli darajada kengaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining jo'g'rofiyasi va hajmi oshib, 92 ta davlatga 5,5 million 119 xil turdag'i 2,4 milliard dollarlik mahsulot eksport qilindi. Norvegiya, Shvetsiya, Shveysariya, Kipr, Buyuk Britaniya, Lyuksemburg, Avstraliya, Quvayt, Ummon kabi yuqori to'lov qobiliyatiga ega mamlakatlarga meva-sabzavot eksporti boshlandi.

Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda Qozog'iston 46 foiz, Rossiya 27 foiz va Qirg'iziston 10 foiz va hokazo strategik hamkorlar hisoblanadi.

Dunyo mamlakatlarida paxta yetishtirish rentabelligi so'nggi bir necha yil mobaynida o'zgarishsiz qolmoqda. Bunga sayyoramizda yuz berayotgan global iqlim o'zgarishi, paxtachilik uchun muhitning stress omillari – ekish davrida haddan ziyod yomg'ir yog'ishi, gullah bosqichida haroratning oshishi, tuproq unumdoorligining pasayishi, zararkunanda va kasalliklar guruhi ko'payishi, resurslar taqchilli-

giga qarshi agrotexnologiyalar yetishmasligi kabi muammolar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan paxtachilikdagi ushbu muammolarni hal etish, paxtachilikda foydalanilayotgan resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, tarmoqqa innovatsion, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish kabi tadbirlarni amalga oshirib borish lozim.

Paxta yetishtirish resurslar sarfi, ayniqsa, suv va mehnat resurslari sarfi juda yuqori bo'lgan ish-

lab chiqarish jarayoni hisoblanadi. Shu boisdan ham mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlashda resurs tejash masalasi muhim ahamiyat kasb etib, paxta xomashyosi ishlab chiqarishda resurslarni tejash masalasiga ilmiy va amaliy jihatdan quyidagi yo'naliishlarda yondashish talab qilinadi [16]. Quyida tomchilatib sug'orish texnologiyasini tahliliy ko'rib chiqaylik (1-jadval).

1-jadval

Tomchilatib sug'orish texnologiyasini qo'llashning SWOT-tahili

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
<ul style="list-style-type: none"> ➤ yetarli miqdorda suv, mineral o'g'it va mikroelementlarning bevosita o'simlikning ildiziga yetib borishi; ➤ suv resurslarining 2-5 marotaba tejalishi; ➤ ekinlarning intensiv rivojlanishi va o'sishi; ➤ hosildorlikning 30-50 % o'sishi va mineral o'g'itga xarajatlarning 2 barobar kamayishi; ➤ YaMM xarajatlarining kamayishi; ➤ begona o'tlar va kasalliklarga qarshi kurashish osonlashadi; ➤ mehnat unumidorligi oshadi (3-4 operator 100-200 ga maydonni bema'lol sug'ora oladi); ➤ agrotexnik tadbirlarni to'siqlarsiz amalga oshirish; ➤ tuproqning unumdar qatlami yuvilmaydi; ➤ tog' va tog'oldi sharotlarda tuproq eroziyasining oldi olinadi; ➤ drenaj tashlamalarning mavjud emasligi. 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ uskuna qiymatining yuqoriligi; ➤ imtiyozli kreditlashning chegaralanganligi; ➤ kredit olish uchun ta'minot zarurligi; ➤ sifatsiz uskunalar; ➤ malakali operatorlarning yo'qligi; ➤ texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashga ko'plab xarajatlarning mavjudligi; ➤ servis xizmat ko'rsatish markazlarining mavjud emasligi; ➤ malakali quruvchilar talab etiladi; ➤ sug'orish uchun chuchuk suv talab etiladi; ➤ elektroenergiya xarajatlari mavjud; ➤ sho'rланish darajasi yuqori bo'lgan tuproqlarda qo'llashning imkonsizligi; ➤ tomchilatib sug'orish texnologiyalari va sohaga oid kompaniyalarni tanlashda fermerlar tajribasining yetishmasligi; ➤ tizimni loyihalashda xatoliklar.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
<ul style="list-style-type: none"> ➤ paxta xomashyosini yetishtiruvchilarga 1 ga paxta maydoni uchun 8 mln. so'm subsidiya ajratish; ➤ EKIHning 1000 baravarigacha 3 yilga imtiyozli kreditlash; ➤ 5 yil muddatga yer solig'idan ozod qilinishi; ➤ fermer xo'jaliklari, korxona va tashkilotlar tomonidan tomchilatib sug'orish texnologiyalarini chetdan olib kirishda bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtirish uchun bojhona yig'imlari bundan mustasno) ozod etilishi; ➤ tog' va tog'oldi hududlarda 1072,2 ming ga maydongacha nasos qo'llamasdan foydalanish mumkinligi; ➤ mashinali sug'orish maydonlarida yuqori samaradorligi; ➤ sug'orish maydonlarining 2-3 barobar ko'payishi. 	<ul style="list-style-type: none"> ➤ qonunchilikdagi o'zgarishlar (imtiyozli soliqlar va kreditlarning bekor qilinishi); ➤ tabiiy ofatlar (sel kelishi, suvlarning loyqalanishi); ➤ tomchilatib sug'orishga zarur bo'lgan polietilen va boshqa turdag'i butlovchi qismlar narxlarining oshib ketishi; ➤ elektroenergiya narxining oshib ketishi.

Manba: Qishloq vazirligi ma'lumotlari asosida muallif ishlansasi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mammakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi keyingi besh yil davomida amalga oshirilayotgan yangi iqtisodiy munosabatlar asosida qurilmoqda. Qishloq xo'jaligi eksportini 1-2 milliard dollardan 5 milliard dollarga oshirish 2026-yilgacha strategik maqsadir. Mavjud resurslardan oqilona foydalanish bilan ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarni to'liq qondirish samaradorlikning eng yuqori mezondir [16].

O'zbekiston sanoatida qishloq xo'jaligi yuqori sifatli xomashyo va yarimtayyor mahsulotlar yetka-zib beruvchi sifatida o'z o'rnnini egalladi va bu bora-da amalda import o'rnnini bosish siyosati amalga oshirilmoqda.

Bu boradagi bugungi kun talablaridan kelib chiqadigan yangi vazifalar va tadbirlarga asos sifati-

da quyidagi takliflarni taklif etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

– qishloq xo'jaligi bozorini isloh qilishni jadal-lashtirish (qishloq xo'jaligida bozorlar rolini oshirish, qishloq xo'jaligi bozorlari ishiga davlatning aralashuvini amaliyotidan voz kechish, bozor qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga davlat xarajatlari va investitsiyalar yo'naliшини o'zgartirish);

– davlatni ishlab chiqaruvchidan bozor jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi yordamchiga (davlat korxonalarini sonini qisqartirish va ularning samaradorligini oshirish, qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, davlat investitsiyalarini samaradorligini oshirish) aylanishiga erishish;

– subsidiyani oldindan rag'batlantiruvchi motivatsiya vazifasini bajaruvchi stixiyali harakat sifatida baholash bozor tamoyillariga mos tushadi

desak, to'g'ri bo'ladi, chunki uzoq yillar davomida dotatsiya qarzdan kechish amaliyoti, aksincha, hosildorlikni oshirishga, rentabellikni ta'minlashga xizmat qilmadi, boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqardi, strategiyani to'g'ri tanlash imkonini bermadi.

Qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i bo'lgan paxtachilikda resurs tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biridir.

Jumladan, birinchisi – paxtachilikda resurslar sarfi miqdorini mutlaq tejash yo'nalishi sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Bunda paxta xomashyosi ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilinadigan moddiy-texnik va mehnat resurslari miqdorini paxta ekin maydoni hisobiga mutlaq kamaytirib borish masalasi nazarda tutiladi. Masalan, bir gektar ekin maydoni hisobiga suv sarfi miqdorini kamaytirish, bir gektar maydon hisobiga mehnat resurslari sarfi

miqdorini yoki ekin maydoni hisobiga yoqilg'i moylash materiallari miqdorini kamaytirish ko'rinishidagi resurslar sarfini nazarda tutish mumkin;

ikkinchisi – paxtachilikda resurslar sarfi miqdorining nisbiy tejash yo'nalishi sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Bunda paxta ekin maydoni hisobiga resurslar sarfi miqdori o'zgarishsiz qolgan holda paxta hosildorligini oshirish natijasida mahsulot birligi hisobiga to'g'ri keladigan sarf-xaratlar miqdorini kamaytirish masalasi nazarda tutiladi;

uchinchisi – paxtachilikda resurslar sarfi miqdorini tejashdagi majmuali yo'nalish sifatida yondashish qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Bunda paxtachilikda xarajatlarni kamaytirishda "Resurslar sarfi miqdorini mutlaq tejash yo'nalishi" va "Resurslar sarfi miqdorini nisbiy tejash yo'nalishi" dan birgalikda foydalanish nazarda tutiladi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Савмит ООН по устойчивому развитию, 25–27 сентября 2015 года, Нью-Йорк. <https://www.un.org/ru>.
2. Устойчивая трансформация сельского хозяйства в северной и Центральной Азии. Патриция Вонг, Динара Асаубаева и Амина Анастасиаду, при участии Чэнг Цзююэ. Рабочий документ Субрегионального отделения для Северной и Центральной Азии. UN ESCAP 2020.
3. Указ Президента Республики Узбекистан от 23 октября 2019 года «Об утверждении стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы».
4. Новый доклад Всемирного банка выявили возможности для социально-экономического развития Узбекистана. 18.05.2022 г. <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/news/press-release/2022/05/18/uzbekistan-systematic-country-diagnostic>.
5. Экономика сельского хозяйства. Учебник для академического бакалавриата. / Н.Я.Коволенко. – М.: Издательство ЮРАЙТ, 2018. Стр. 297-299.
6. Чаянов А.В. О сельскохозяйственной кооперации. 1989.
7. Милосердов В.В. Аграрная политика России – XX век. / В.В.Милосердов, К.В.Милосердов. – М., 2002. – 544 с.
8. Abdug'aniyev A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2004. 26-b.
9. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. – T.: EXTREMUM PRESS, 2011. – 416 bet.
10. Xusanov R.A., Dadaboyev T.Yu., Dadaboyev D.Yu. Agrosanoat kompleksi iqtisodiyoti. – T.: O'zbekiston, 2003. – 470-b.
11. Parry M. Food and energy security: Exploring the challenges of attaining secure and sustainable supplies of food and energy. Food Energy Secur. 2012, 1, 1–2.
12. World Bank. World Development Report: Agriculture for Development; World Bank: Washington, DC, USA, 2008.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdaggi PQ-144-soni "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. manba lex.uz.
14. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi rasmiy veb-sayti. agro.uz.
15. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi rasmiy veb-sayti, klasterlar va kooperatsiyalar. agro.uz.
16. Burxanov A.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. – T.: "Ziyo nashr-matba" nashriyoti, 2022-yil. – 413 b.



ЎЗБЕКИСТОНДА УЗУМЧИЛИК-ВИНОЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИ БҮЙИЧА РАҚОБАТБАРДОШЛИКНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Азадова Бонупошиша Алишер қизи -
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
таянч докторантни

doi: https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a45

Аннотация. Виночиликнинг рақобатбардошлигини ошириши ўйлари мураккаб муаммо бўлиб, у нафақат ишлаб чиқарувчиларга, балки давлат ва худудий қўллаб-қувватлаш ва тартибга солишига, узумчилик ва умуман, виночиликни мувофиқлаштирилган ривожжланнишга, амалга ошириши кўламига ҳам боғлиқ. Узумчилик-виночиликнинг рақобатбардошлигини оширишининг ҳар бир маркибий қисми бошқарув, иқтисодий, маркетинг, ҳукуқий воситалар, меъёрлар ва усулларининг маълум бир комплексидир. Ушбу соҳада рақобатбардошликни ошириш мақсадидага узум етишиши, қуритиш, қадоқлаш, қайта ишлаш, тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш ва экспорт қилишининг тўйлиқ даврини яратгани ҳолатда узумчилик ва виночилик кластерлари ташкил этилмоқда.

Калим сўзлар: кластер, рақобатбардош, бозор улуши, импорт, қиймат занжиси, иқтисодий, маркетинг, ҳукуқий воситалар, меъёрлар, ассортимент, имиж.